

**"SMART TA'LIM" VA "4K" TA'LIM TAMOILASI  
O'QUVCHILARNING TADQIQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH**

*Jizzax shaxar MMT bo'limiga qarashli 30-soni  
umumiyo'rta ta'limgakabi o'qituvchilari*

**Ganiyeva Marxabo  
Davletova Rayhon**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada "Smart ta'lim" va "4K" ta'lim tamoillari haqida shuningdek ularning o'quvchilarini tadqiqot ko'nikmlari borasida ham so'z boradi.

**Kalit so'zlar.** Ta'lim, konsepsiya, "Smart ta'lim", "4K", faoliyat, aqlii ta'lim, kreativlik, ma'lumot, imkoniyat.

Jahonda ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan asosiy omil sifatida e'tirof etilib, xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida —bilimning mustahkam poydevoriga ega bo\_lish, o\_quvchilarda ijodkorlikni va bilishga baholash[1] dolzarb vazifa sifatida qayd etilgan. Ta'lim jarayonida o\_quvchilarini ijodiy faoliyatga jalb etish, ularda kreativlikni, ya'ni o\_z faoliyatlarini tahlil qilgan

Hammamizga ma'lumki, XXI asrga kelib insoniyat hammaga birdek axborot olish imkoniyatini beruvchi ochiq axborot jamiyatini shakllantirish tomon jadal bormoqda. "Elektron hukumat", "elektron uy", "elektron tijorat", "elektron ta'lim" kabi raqamli borliq elementlari hayotimizga kirib ulgurdi va odatiy hol bo'lib qoldi. Endilikda insoniyat elektron resurslardan shunchaki axborot manbasi sifatida emas, balki interfaol muhitda ulardan aql bilan foydalanishni maqsad qilib qo'yemoqda. Bu jadal yangilanib borayotgan axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan muloqot darajasida foydalanish, ma'lumotlarni qayta ishlash va qaysidir ma'noda odam o'rnida "o'ylash"ga majbur qilishni talab qiladi. Endilikda "Aqlii hukumat", "Aqlii uy", "Aqlii tijorat", "Aqlii ta'lim" kabi dasturiy ta'minotlar, raqamli borliq elementlari hayotimizga kirib kelmoqda

Smart education (yoki aqlii ta'lim) - bu ochiq axborot resurslari yordamida interaktiv virtual muhitda amalga oshiriladigan moslashuvchan va induviduallashirilgan yangi global ta'lim texnologiyasidir. Uning eng asosiy xususiyati uning butun dunyo miqyosida amalga oshirilishi va hammaga birdek axborot olish va keng ta'lim olish imkoniyatlarining yaratilishidir. Smart education ta'lim muhiti o'z navbatida uning qatnashchilaridan butun ta'lim jarayonini, foydalanilayotgan metod va texnologiyalarni yangilash va bir tizimga keltirishni taqozo etadi. Xuddi shu maqsadda Evropa Ittifoqi davlatlari o'z ta'lim tizimlarini bir xil standartga keltirish yo'lidan borishmoqda va dunyoning boshqa davlatlarini ham bunga da'vat etishmoqda. Kelajak ta'limi muhiti sifatida e'tirof etilayotgan. Yagona yevropa universiteti loyihasi bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan salmoqli qadamlardan biridir. Kecha ta'lim olishning yagona manbasi o'qituvchi bo'lib, o'quvchi ta'lim olish uchun sinfxonaga kelishi va o'qituvchi bilan yuzma-yuz muloqot qilishi yoki kitob o'qishi hamda tushunmaganlarini o'qituvchidan so'rab o'rganishga majbur edi. Bugunga kelib, axborot

kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallagan o'quvchi bilimni nafaqat sinfxonada o'qituvchidan, balki istalgan joyda, internetdagi boshqa faol bilim manbalardan ham olish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Shu bilan birga, hozirda qo'llanilayotgan ta'limning pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari o'qituvchining ta'lim jarayonidagi rolini o'zgartirmoqda. O'qituvchining roli endi faqat bilim manbai emas, balki bilim olishga yo'naltiruvchi va bu jarayonni boshqaruvchisi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu o'rinda interfaol texnologiyalarning qo'llanishi o'quvchilarining o'zi ham bilimlarni bir-birlariga uzatish va yangilarini shakllantirish manbai sifatidagi rolini oshirmoqda. Bundan tashqari, so'nggi yillarda o'quvchi yoshlarning Twitter, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarni ishg'ol qilganliklari va turli qiziqishlar, xususan ta'lim olish bo'yicha o'z uyushmalarini tuzib, faol muloqot qilayotganliklari, ya'ni o'zaro keng muloqot, ta'lim muhitining yaratilganligi mazkur ta'lim tizimiga bo'lgan qiziqishni orttirmoqda. SMART (aqlli) - jamiyatning paydo bo'lishi global miqyosda o'zini namoyon qila boradi. Gollandiya, Avstraliya, Koreya davlatlarida SMART-jamiyatni milliy g'oya va asosiy siyosiy vazifa sifatida e'lon qilindi. Bugungi kunda bir qator boshqa davlatlar SMART-ta'limni rivojlantirishga kirishdilar. SMART-jamiyatning modeli - zamonaviy axborot va tashkiliy tizimlar yordamida intellektual, yuqori texnologiyali, inson uchun qulay muhitini yaratishni nazarda tutadi. Borgan sari inson yangi bilimlarni egallab boradi va u bu bilimlarni axborot texnologiyalarisiz qolmay olmay qoladi. Ta'limning asosiy maqsadlaridan biri SMART-texnologiyalar asosida zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirish orqali sifatli ta'limga erishishdir.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik yoshdan boshlab bolalar iqtidori, kreativlik, kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish, o\_quvchilar kreativligining tarkibiy asoslarini belgilash, motivatsion, ijtimoiy-madaniy yondashuvlarning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, boshlang\_ich sinf o\_quvchilarida kreativlikni rivojlantirish omillarini ta'sirini baholash, kreativlikka asoslangan ta'limiy faoliyatni tashkil etishning metodik tizimini takomillashtirish, kreativlikka asoslangan pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish zarurati tug\_ilmoqda. Boshlang\_ich ta'limga bunday yondashuv shaxsga yo\_naltirilgan ta'lim strategiyasi talablariga mos ravishda hayotiy ko\_nikmalarni shakllantirish, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishdagi keng qamrovli islohotlar natijasida boshlang\_ich ta'limda sifatli ta'lim xizmatlari samaradorligini oshirish, shiddat bilan o\_zgarib borayotgan globallahuv sharoitida o\_quvchilarida ijtimoiy intellektni rivojlantirishni ta'minlovchi imkoniyatlar salmog\_i kengayib, boshlang\_ich sinflardan boshlab o\_quvchilar 4K tamoyiliga asoslangan yangi avlod darsliklaridan ta'lim olishlari inobatga olindi. Bu innovatsion ta'lim jarayonlarida xalqaro tajribalar integratsiyasini o\_zida aks ettirgan quruq ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o\_qish, yozishni o\_rgatish bilan cheklanib qolmasdan, o\_quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo\_lgan hayotiy ko\_nikmalarni ham o\_rganishlarini ta'minlashga qaratilgan yangicha yondashuv hisoblanadi. O\_zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasida —Uzluksiz ta'lim qo\_llab quvvatlash, milliy o\_quv dasturi asosida o\_quvchilar qobiliyatlarini ro\_yobga boshlang\_ich sinf o\_quvchilarida kreativlikni rivojlantirishning komponentlari va omillarini aniqlashtirish, o\_quvchilarida kreativlikni rivojlantirishda 4K tamoyiliga asoslangan ta'lim muhitini yaratish

orqali faollashtirish masalalari boshlangich sinf oqituvchisidan yuqori darajadagi kasbiy mahorat va bilimni talab etadi.

Milliy o<sub>quv</sub> dasturi talablariga javoban 4K tamoyillarini o<sub>zida</sub> aks ettirgan o<sub>quv</sub> jarayonlarida boshlang<sub>ich</sub> sinf o<sub>quvchilarida</sub> kreativlikni rivojlantirishtuzilmasi ko<sub>plab</sub> komponentlardan iborat dinamik tizimi sifatida talqin qilindi. Mazkur tizim o<sub>quv</sub> faoliyati jarayonida rivojlanib, qayta tashkillanib boradi. Har bir tarkibiy qism ularning o<sub>zaro</sub> aloqadorligini ochib berishga xizmat qiluvchi o<sub>zining</sub> mazmuniga ega.

Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o\_qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo\_yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg\_or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan —4K modeli asosida tayyorlandi. —4K modelidan foydalanish ko\_plab sinovlardan o\_tgan, muhim, zamonaviy yondashuvdir. Biz avvallari bolalarning yozuviga ko\_proq e'tibor qaratganmiz, diktantlar yozdirganimiz.

Yangi tajriba bilan esa o\_quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o\_z fikrini erkin bayon eta olishiga ko\_proq ahamiyat beriladi. Ushbu yangi zamonaviy mактаб darsliklari innovation yondashuvni taqdim etadi. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo\_lib, to\_rt asosiy kompetensiyalarni o\_z ichiga oladi.

Kollaborasiya – darsliklar o<sub>z</sub>uvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o<sub>z</sub>uvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o<sub>z</sub>aro qo<sub>ll</sub>ab-quvvatlash ko<sub>n</sub>nikmalarini o<sub>r</sub>ganishga ko<sub>n</sub> maklashadi.

Kommunikativlik – darsliklar o<sub>q</sub>uvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O<sub>q</sub>uvchilar o<sub>z</sub> fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'r ganadilar.

Kreativ fikrlash – darsliklar ijodiy fikrlash va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O\_quvchilar o\_z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo\_llashni o\_rganadilar, innovasion yechimlar ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko\_nikmalariga ega bo ladilar.

Kritik fikrlash – ushbu metodologiya o<sub>z</sub>quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o<sub>z</sub> fikri va mulohazalarini shakllantirish ko<sub>n</sub>ikmalarini rivojlantirishni o<sub>z</sub> ichiga oladi. O<sub>z</sub>quvchilar muammolarga analitik nuqtai nazardan yondashishni o<sub>rg</sub>anadilar va mantiqiyl fikrlash asosida o<sub>z</sub> nuqtai nazarini shakllantiradilar.

Ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, o\_ quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak. Maktabdagagi har bir dars o\_ quvchilar faqat fan mazmunini o\_zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini rivojlantiradigan jarayondir.

Umumta'lim mактабларида о\_кув jarayонида о\_кувчиларни tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishda quruq ma'lumotlarni yodlatish, savollarga javob topish bilan cheklanmay, ularda analitik va kompleks fikrlash, ma'lumotlar va manbalarni o\_rgatish, berilgan hodisa yoki vaziyat bo\_yicha qaror qabul qilish, taqqoslash kabi kompleks fikrlashni talab etadi. 4K tamoyili zamonaviy pedagogikada keng va dolzarbligi ortib borayotgan tamoyil sifatida о\_кувчилардан nafaqat fanlarni, balki XI asrda zarur bo\_lgan hayotiy о\_rganishni taqozo

etadi. XXI asr ko\_nikmalari esa aynan 4 K tamoyilida o\_z aksini topgan. Hozirgi zamonaviy ta'lim o\_quvchilarni majburiy mavzular, o\_quv materiallari bilan o\_quv jarayoniga jalg' eta olmaydi. O\_quvchilarning qiziqishi, dunyoqarashini hisobga olgan holda turli topshiriqlar, didaktik o\_yinlar, interfaol metodlar, hayotiy-amaliy faoliyatga bog\_liqligini keltirib chiqaruvchi emotsiional-labilizatsiyani rivojlantirish, mavzuni nima maqsadda o\_rganish zarurligini tushuntirish orqali dars mashg\_ulotlarini tushuntirishni taqozo etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Dilova N.G. Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati // Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etishda ta'lim sifatini boshqarish muammolari: Xalqaro anjuman materiallari. – Qo\_qon, 2022. – B. 38-41.
2. Dilova N.G. Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati // Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etishda ta'lim sifatini boshqarish muammolari: Xalqaro anjuman materiallari. – Qo\_qon, 2022. – B. 38-41.
3. Dilova N.G. O\_quvchilarning shaxsiy sifatlari – pedagogik hamkorlikning dastlabki tamoyili // Science and education. Vol. 2, Issue 10. 2021. – P. 558-566.
4. Tolipova J. Pedagogik kvalimetriya. – T.: TDPU bosmaxonasi, 2015. – 107 b.
5. Kuysinov O.A., Nosirov A., Abduraimov Sh., Sodikova A., Kutlimuratov K., Mamajonova K. New Uzbekistan – The value of Membership in the Continuous Education System. —International journal of special education|| Scopus Journal. <https://www.internationaljournalofspecialeducation.com/submission/index.php/ijse/article/view/515> ISSN No:0827-3383 VOLUME 37, №3. – 2022.